TUTINGAN OILAGA JOYLASHTIRISHDA BOLA MANFAATLARINI TA’MINLASHNING SHARTNOMAVIY KAFOLATLARI

Do‘smatov Jasurbek Umidjon o‘g‘li
Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti yetakchi mutaxassisi,

Annotatsiya: Tezisda ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tutingan oilaga joylashtirishning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Bola manfaatlarini ta’minlashda shartnoma, individual reja va monitoringning o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Bolaning fikrini eshitish, shartnoma majburiyatlarini aniqlashtirish hamda manfaatlar to‘qnashuvi holatlarida mustaqil himoyani kuchaytirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: muqobil oilaviy vasiylik, tutingan oila, bolaning eng ustuvor manfaatlari, shartnoma, individual reja, monitoring.

Аннотация: В тезисах анализируются правовые основы устройства детей, оставшихся без попечения родителей, в приёмную семью. Раскрывается взаимосвязь договора, индивидуального плана и мониторинга при обеспечении интересов ребёнка. Предлагаются меры по учёту мнения ребёнка, конкретизации договорных обязательств и усилению независимой защиты в ситуациях конфликта интересов.

Ключевые слова: альтернативная семейная опека, приёмная семья, наилучшие интересы ребёнка, договор, индивидуальный план, мониторинг.

Abstract: This paper analyses the legal framework for placing children deprived of parental care in foster families. It examines the relationship between the placement agreement, the individual care plan and monitoring in safeguarding the child’s best interests. Proposals address child participation, clearer contractual duties and independent protection in conflicts of interest.

Keywords: alternative family care, foster family, best interests of the child, agreement, individual care plan, monitoring.

Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolani oilaviy muhitda tarbiyalash uning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi va ijtimoiy aloqalarini saqlash bilan uzviy bog‘liq. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning 3, 12 va 20-moddalari bolaning eng ustuvor manfaatlarini hisobga olish, fikrini eshitish hamda oilaviy muhitdan mahrum bolani alohida himoya qilishga asos yaratadi. BMTning bolalar uchun muqobil parvarish bo‘yicha yo‘riqnomasi ham bolaning ijtimoiy ahvoliga mos va xavfsiz parvarish muhitini tanlashga yo‘naltiradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad muqobil oilaga joylashtiribgina qolmasdan, tanlangan muhit bolaning barcha shaxsiy ehtiyojlariga amalda javob berishi lozim.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 150-moddasida bolani oilaga joylashtirish, buning imkoni bo‘lmaganda esa tegishli muassasaga berish nazarda tutilgan. Kodeksning 194-moddasiga ko‘ra, tutingan (foster) oila patronat va qonunchilikda belgilangan boshqa shakllarda tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, patronatga bola faqat o‘z qarindoshlariga berilganligi sababli patronat bilan tutingan oilaning barcha shakllarini aynan bir tushuncha sifatida qo‘llab bo‘lmaydi.[2]

Kodeksning 195-moddasiga muvofiq, tutingan oilaga olish shartnomasi vasiylik va homiylik organi bilan tutingan ota-ona o‘rtasida tuziladi. Unda

[1] Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya.
[2] Oila kodeksi.

ta’minot, tarbiya, ta’lim, taraflarning huquq va majburiyatlari hamda shartnomani bekor qilish asoslari ko‘rsatiladi. Bola shartnomani tuzuvchi taraf sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, u mazkur munosabatlarning mustaqil huquq egasi hisoblanadi.

Amaldagi qonunchilikda bolaning individual rejasi va monitoring allaqachon nazarda tutilgan. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash, muqobil joylashtirish shakllariga yo‘naltirish va ularning hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida Nizomga muvofiq vakolatli organ bolaning holatini baholab, individual rivojlanish yoki integratsiya rejasini tuzadi. Bundan tashqari Nizomda tutingan oiladagi tarbiya va parvarish shu rejaga muvofiq amalga oshirilishi hamda tutingan oiladagi monitoring kamida har oyda bir marta o‘tkazilishi belgilangan. D. Babajanova bolalarni joylashtirishda farzandlikka olish, oilaga tarbiyaga berish, so‘ng vasiylik va homiylikni qo‘llash ketma-ketligini taklif etgan. Mazkur yondashuvning oilaviy muhitni ta’minlashga qaratilgan ahamiyatini e’tirof etgan holda, fikrimizcha, har bir bola uchun qat’iy ketma-ketlikdan ko‘ra uning xavfsizligi, mavjud yaqin aloqalari va fikriga asoslangan individual tanlov maqsadga muvofiq. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 24-moddasi ham bolaga g‘amxo‘rlik qilishga imkoniyati mavjud qarindoshlariga imtiyozli huquq beradi. Agar bola qarindoshlari bilan xavfsiz va barqaror sharoitda yashay olsa, uni shu oilaga joylashtirish masalasini ko‘rib chiqish lozim. Boshqa joylashtirish shakllariga ustunlik berib, bu imkoniyatni hisobga olmaslik bolaning manfaatlariga zid bo‘lishi mumkin.[3]

Birinchidan, Oila kodeksining 195-moddasini quyidagi mazmundagi norma bilan to‘ldirish taklif etiladi: “Tutingan oilaga olish to‘g‘risidagi shartnomada bolaning individual rivojlanish yoki integratsiya rejasini amalga oshirish yuzasidan taraflarning vazifalari, ularni bajarish muddatlari va

[3] Babajanova D. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi. 2019. 68–72-betlar.

hamkorlik tartibi belgilanadi. Ushbu reja o‘zgartirilgan taqdirda, shartnomaning tegishli shartlari bolaning fikrini hisobga olgan holda qayta ko‘rib chiqiladi”. Bunda individual rivojlanish rejasining o‘zgarganligi shartnomaning avtomatik o‘zgarganligini anglatmaydi, bunda taraflar tegishli o‘zgartirishlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirishi lozim bo‘ladi.

Ikkinchidan, namunaviy shartnomaga bolaning individual rejasiga havola qiluvchi, vazifa, mas’ul shaxs va bajarish muddatini ko‘rsatuvchi qisqa ilova kiritish maqsadga muvofiq. Ilovada, masalan, zarur ta’lim yoki reabilitatsiya xizmatini tashkil etish bo‘yicha mas’ul organ va tutingan ota-onaning alohida harakatlari belgilanadi. Bolaga oid shaxsiy va tibbiy ma’lumotlardan foydalanish esa faqat qonunchilikka muvofiq hamda zarur hollarda amalga oshirilishi lozim. Uchinchidan, bolaning fikrini eshitish rasmiy rozilik olish bilangina cheklanmasligi kerak. Oila kodeksining 68-moddasi bolaning fikrini yoshidan qat’i nazar ko‘rib chiqishni, 194-modda esa o‘n yoshga to‘lgan bolani tutingan oilaga uning roziligi bilan berishni belgilaydi. Shu bois monitoring jarayonida, bolaning yoshi va holatiga mos shaklda, zarur hollarda tutingan ota-ona ishtirokisiz suhbat o‘tkazish va uning natijasini maxfiy qayd etish taklif qilinadi.[4]

Xulosa qilib aytganda, bolani tutingan oilaga joylashtirishda uning manfaatlarini himoya qilish uchun oilani bolaning ehtiyojlariga mos tanlash va uning parvarishiga oid majburiyatlarni shartnomada aniq belgilash lozim. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya va milliy qonunchilik tahlili bolani muqobil oilaga joylashtirish shaklini tanlashda bolaning fikrini eshitish, uning xavfsizligi va yaqinlari bilan shakllangan aloqalarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Agar qarindoshlari bolaga xavfsiz va barqaror sharoit yarata olsa, ularga qonunda berilgan imtiyozli huquq bolani shu oilaga joylashtirish imkoniyatini ko‘rib chiqishga asos bo‘ladi. Oila kodeksining 195-moddasiga

[4] O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi

bolaning individual rejasidagi har bir vazifani kim va qaysi muddatda bajarishini shartnomada ko‘rsatish talabini kiritish taklif etiladi. Bu tartib monitoring davomida vazifalarning o‘z vaqtida bajarilganini tekshirishga, bolaning o‘zi bilan suhbat esa ko‘rsatilgan yordam uning ehtiyojlariga qanchalik mosligini aniqlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya. 1989-yil 20-noyabr. 3, 12, 20-moddalar. Elektron manba.

2. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 1998-yil 30-aprel. 68, 150, 194–195-moddalar. Elektron manba.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son. 24-modda. Elektron manba.

4. Vazirlar Mahkamasining “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari bo‘yicha ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2024-yil 27-dekabr, 893-son. Elektron manba.

5. BMT Bosh Assambleyasi. Guidelines for the Alternative Care of Children. 2009-yil 18-dekabr, A/RES/64/142. Elektron manba.

6. Babajanova D. Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi // Review of Law Sciences. 2019. 68–72-b. Elektron manba.